

## FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta‘lim sohasida dolzarb masalalar, zamonaviy ta‘limga tizimli yondashuv, hozirgi rivojlangan davrda ta‘lim tizimida integratsiya, fanlararo bog‘lanish asosida boshlang‘ich ta‘limni amalga oshirishning o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim mazmuni, integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, o‘qitish tamoyillari.

### ABSTRACT

This article talks about current issues in the field of education, a systematic approach to modern education, integration in the education system in the modern era, and the uniqueness of the implementation of primary education based on interdisciplinary connections.

**Keywords:** educational content, integration, interdisciplinarity, teaching principles.

Zamonaviy ta‘lim jarayoniga tizimli yondashuv nazariy-metodologik, ilmiy-pedagogik, ilmiy-kasbiy mazmun berib, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda fanlararo integratsiya zamonaviy ta‘limning zaruriy sharti hisoblanmoqda. Ta‘limga kompleks yondashuvning uslubiy asosi - bizni o‘rab turgan dunyo va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish shuningdek, fanlarni o‘zlashtirishda sub’ektlar ichidagi aloqalarni o‘rnatishdir.

Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdan iboratdir. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta‘lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ta‘lim mazmunida fanlararo aloqadorlikda o‘qitish o‘quvchini har tomonlama tasavvur qilish hamda tafakkur qobiliyatini o‘stiradi. Integratsiyalash o‘qitishning bitta fanning tushuncha va harakat turlari bilan chegaralab qolmasdan, faoliyatni umumlashtirgan turlariga chiqishga imkoniyat

beradi.

Fanlararo bogʻlanish mantiqiy tugallangan koʻrinishda turli oʻquv fanlari tuzilmalarining elementlari orasidagi anglanilgan, umumiy shaklda ifodalangan munosabatdir.

Turli fanlardan olingan bilimlar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni oʻzlashtirish tufayli shakllantirilgan yangi bilim bunday munosabatga misol boʻlishi mumkin. Bu bilim oʻzining mazmuni va shakllantirish usuliga koʻra oʻquv bilishda fanlararo xususiyatga ega boʻladi. Turli fanlarda qoʻllaniladigan oʻquv-bilish faoliyatlari oʻrtasidagi bogʻlanishlarni oʻzlashtirish natijasida shakllantirilgan yangi umumlashgan malaka ham bunday munosabatga misol boʻlishi mumkin. Yangi umumlashgan malaka turli oʻquv fanlarida ular uchun umumiy boʻlgan fanlararo bilimlarni qoʻllashda foydalanilishi mumkin boʻlganligi sababli fanlararo malaka hisoblanadi (masalan, ogʻzaki va yozma nutq malakalari, funktsional, hisoblash, rasmiy-mantiqiy, hisoblash-oʻlchash, badiiy-tasviriy, grafik, fikrlash faoliyatining umumiy malakalari va b.). Yangi, fanlararo asosda umumlashtirilgan, taʼlim oluvchida oʻqituvchi orqali gʻoyaviy-ahloqiy ongni shakllantiradigan bilimlarning aksiologik, qadriyatli jihatlari bunday munosabatlarga misol boʻlishi mumkin.

Taʼlim oluvchilarda fanlararo bilim, malaka va qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning samaradorligi oʻqitish jarayonida fanlararo bogʻlanishlarni amalga oshirish usullari (metodik usullar, oʻquv ishlari metodlari, oʻquv jarayonini tashkil qilish sharoitlari va shu k.) bilan aniqlanadi: oʻqitishda, ularning oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishi va yangi bilish vaziyalarida qoʻllanilishi. Har tomonlama fanlararo bogʻlanishlarni amalga oshirish natijasida magistrat pedagogik yoʻl, umumiy anʼana, oʻqituvchilarning harakat strategiyasi hosil qilinadi. SHunday qilib, bu yerda gap oʻquv jarayonini didaktik tashkil qilish, pedagogik va metodik ish tizimini konstruktiv ishlab chiqish haqida boradi, shuning uchun ham fanlar aro bogʻlanishlar boʻlajak oʻqituvchini kasbiy tayyorlash jarayonida didaktik tizimni loyihalash tamoyilining rolini oʻynaydi.

Fanlararo bogʻlanishlar oʻqitish jarayonida uning asosiy vazifalarini (taʼlimiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy) amalga oshirish sharti sifatida namoyon boʻladi va ularning oʻzi metodologik, konstruktiv va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Har xil funktsional vazifalaridan kelib chiqib ularning mazmuniy-maʼnoli qiymati, tushunchalar apparatiga mosligi ham oʻzgaradi. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, fanlararo bogʻlanish fenomenini oʻrganishda quyidagi jihatlarni ajratib koʻrsatish mumkin: falsafiy, umumpedagogik, xususiy didaktik, metodik, psixologik. Fanlararo bogʻlanishlar tizimlilik falsafiy tamoyilining aniq didaktik shakli boʻlganligi sababli metodologik vazifalarni bajaradi. Fanlararo oʻqitish tizimlarini (oʻquv mavzusi, oʻquv fani, oʻquv muammosi, sinfdan tashqari faoliyat doirasida va b.) qurish uchun asos

bo'ladigan didaktik tamoyil rolini o'ynar ekan, fanlararo bog'lanishlar konstruktiv funktsiyalarni bajaradi.

Fanlararo bog'lanishlarning shakllantiruvchi vazifasi o'qitishga majmuaviy yondashuvning umumpedagogik vositasi sifatida ta'lim oluvchilarda dunyoqarashni, bilish faolligini va mustaqillikni shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Bu vazifani fanlararo bog'lanishlar o'qitishda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hamda o'qituvchilarning o'rgatuvchi faoliyatini qayta qurishning metodik va psixologik omillari ta'sirida amalga oshiradilar.

SHunday qilib, pedagogika fanining fanlararo bog'lanishlar didaktik kategoriyasining mohiyatiga chuqur kirib borishi o'qitish jarayonini umumiy tashkil qilishda ularning yarimfunktsionalliligi, harakatchanligi, ma'noli ahamiyatining nisbiyligi haqidagi xulosalarga olib keladi.

Metodologik, konstruktiv va shakllantiruvchi vazifalarning birligida fanlararo bog'lanishlar tizimlilik va majmuaviylikning umumiy tamoyillari nuqtai nazaridan fanni o'qitish jarayonining mazmunini qurish va tashkil qilishga zamonaviy didaktik (fanlararo) yondashuvni yaratadi.

O'qituvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatining o'zaro aloqasi didaktikaning predmeti hisoblanadi.

Fanlararo bog'lanishlar o'qitish amaliyotida o'zaro aloqaning samaradorligini ta'minlovchi bu o'qitish tamoyillaridir.

O'qitish tamoyillari bu o'qitish jarayonini tashkil qilishga uning ijtimoiy vazifalaridan, metodologik asoslaridan, qonuniyatlaridan va amaliy tajribadan kelib chiqadigan rahbariy talablar. Tamoyillar o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyati sohasiga qaratilgan. Ularda amaliyotning regulyativ me'yorlari sifatida qo'llanilishi kerak bo'lgan o'qitishning maqsadi, mohiyati, mazmuni, tuzilmasi to'g'risidagi bilimlar aks etadi. Tamoyillar metodiko-pedagogik qoidalar yig'indisida mujassamlashadi. Tamoyillar didaktikaning kategoriyasi sifatida quyidagilarga asosan bo'linadi: umumiylik, ijtimoiy yo'naltirilganlik, metodologik aniqlanishi, boshqaruv vazifalari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ichki jihatlariga murajaat qilinishi, o'qitish jarayonining yaxlit xossalarini, uning vazifalarining biriligin aks ettirishi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shaxsni har tomonlama rivojlantirish vazifalari, fan integratsiyasi an'analari, fanlararo bog'lanish tamoyili o'qitishning eng zamonaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi taniqli olimlar tomonidan ochib berilgan. Ular o'quv fanlariaro aloqadorlik qonuniyatlari metodologik-didaktik tamoyillar ichida yetakchi didaktik hodisa ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликни методологик-дидактик асослари (ижтимоий-гуманитар йуналишдаги академик лецейларда математика ўқитиш мисолида: Дис. ... пед. фан. док. – Т., 2006. – 230 б.
2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Тошкент: ТДПУ, 2003. – 175 б.
3. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
5. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
6. Алиқулов С.Т. Ўқувчиларнинг умумтехник билим ва кўникмаларини фанлараро алоқадорлик воситасида ривожлантиришнинг методик асослари (Умумкасбий фанларни ўқитиш мисолида): Автореф. дис. ... пед.фан.ном. – Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2008. – 23 б.
7. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6344977>